

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
АРХЕОЛОГИЯ ВА БУХОРО ТАРИХИ КАФЕДРАСИ

БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ
(Энг қадимги замонлардан ҳозиргача)

мавзусида Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция

МАТЕРИАЛЛАРИ

2024 йил 10 май

Бухоро – 2024

Илмий-амалий анжуман Бухоро тарихи, манбашунослиги, тарихшунослиги, археологияси, этнографияси, нумизматикаси, шаҳарсозлиги, маданият ва санъати соҳаларида амалга оширилётган энг янги илмий натижаларни илмий жамоатчиликка етказиш, фан ва таълимнинг узвий боғлиқлигини кучайтириш мақсадида Бухоро давлат университетида **2024 йил 10 май** куни “**БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ**” (ЭНГ ҚАДИМГИ ЗАМОНЛАРДАН ҲОЗИРГАЧА) мавзусидаги Республикао миқёсида илмий-амалий конференция белгиланган тадбирларни амалга ошириш мақсадида ўтказилди.

Ушбу илмий тўплам кенг илмий жамоатчилик, Бухоро тарихи билан қизиқувчилар, тарихчилар, магистрантлар ва талаба ёшларга мўлжалланган

Масъул муҳаррир:

БухДУ профессори, тарих фанлари доктори

Ҳ.Ҳ.Тўраев

Таҳрир ҳайъати ва аъзолари:

О.Х.Хамидов - Бухоро давлат университети ректори, и.ф.д., профессор

Т.Х.Расулов - илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, ф.ф.д., профессор

А.А.Болтаев - Тарих в юридик факультети декани, ф.ф.д., доцент

Ф.У.Темиров - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудири, т.ф.ф.д (PhD) доцент

С.И.Иноятов – Бухоро давлат университети профессори, т.ф.д.

М.И.Ниязова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н

М.Б.Қурбонова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н

Ф.Ҳ.Бобоҷонова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н

А.Ҳ.Болтаев - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.ф.д (PhD)

Б.Б.Болтаев - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси катта ўқитувчиси, т.ф.ф.д (PhD)

О.И.Ражабов - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси катта ўқитувчиси,

Ш.Ў.Носиров – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси,

Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар:

Темиров Ф.У. – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудири

Умаров Б.Б. – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси

Носиров Ш.Ў– Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси

Мазкур тўплам Бухоро давлат университети Илмий Кенгашининг 2024 йил 4 майдаги
9 – сонли қарори билан нашрга тавсия қилинган.

*Илмий-амалий анжуман материалларида ёритилган тарихий жараёнлар,
маълумотлар, чиқарилган хуносалар, манба ва адабиётлар учун муаллифларнинг
ўзлари масъул ва жавобгардир*

Бухоро тарихи масалалари (энг қадимги замонлардан ҳозиргача)

эгаллашга уриниб кўрган. Ҳофиз Таниш Бухорийнинг “Абдулланома” асарида ҳам Работхўжа тўғони ҳақида сўз юритилиб, тўғон 1556 йилда Наврўз Ахмадхон томонидан, 1753 йилда Бухоро хукумдори Раҳимбий томонидан таъмирланганлиги тўғрисида маълумотлар бор¹.

Шарқшунос олим Н.Маевнинг маълумотига қўра Самарқанд шаҳридан 8 верст узоқлиқда, Чўпонота тепалиги ёнида дарё икки тармоқقا – сафед Дарёси яни Оқдарё (шимолий) ва жанубий Қорадарё (сияхаб Дарёси)га ажralади. Улар Миёнкол оролини ҳосил килади. Оролнинг узунлиги 100 км, эни 12-15 км, майдони 1200 км² ни ташкил этади. Навоий вилояти Хатирчи тумани (маркази – Янгиработ шаҳарчаси) Тасмачи қишлоғида яна қўшилади ва яна Зарафшон номи билан оқади. Зарафшон сувининг 70-75% қисми Қорадарё тармоғидан оқади. Бу оралиқда атрофдаги тоғлардан кўплаб сой оқиб тушади, сувнинг озлиги ва суғоришга олиниши натижасида сойлар Зарафшон ва унинг тармоқларигача етиб келмай қуриб қолади. Навоий шаҳри яқинида, Бойқут ва Тошработ қишлоқлари оралиғида даре водийси анча тораяди. Сўнг жанубий-ғарбий йўналишда оқиб, Қизилқум чўлига кириб боради, Бухоро, сўнг Қоракўл воҳаларидан оқиб ўтади. Мана шу қисмида (Қоракўл шаҳригача) Қоракўлдарё деб ҳам аталади².

Қоракўл шаҳридан 3 км юқорида қурилган тўғон - сув тақсимлагичда дарё суви каналларга бўлиб юборилган. Тўғондан қуйида дарё ўзани яна икки тармоқقا ажralади: чапдагиси (кattароғи) - Тойқир, ўнгдагиси эса Сарибозор деб аталади. Ҳар икки тармоқнинг юқори қисми суғориш канали сифатида хизмат қилади. Суғоришдан ортган ва қайтарма сувлар Тойқир ўзани орқали Денгизкўлга қуйилади. Сарибозор тармоғи ҳам Қоракўл воҳасидан анча наригача давом этади, лекин қуий оқимида ўзани кўпинча қуруқ бўлади³.

Миёнқол ўзининг қулай географик қулай шароити туфайли қадим замонлардан ўзлаштирилиб, аҳоли энг гавжум яшаган худудлардан бири ҳисобланган. Бу даврда Оқдарёдан чиқарилган 22 та, Қорадарёдаги 12 та канал воҳани асосан сув билан таъминлаган.

O'ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI BILAN ALOQALARIDA ILIQLIK MUNOSABATLARINING SHAKLLANISHI

*Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasini
dotsenti, t.f.f.d.(PhD)*

*Shuxrat Yodgorovich Qudratov
Rajabov Azimjon Abdullo o'g'li
Buxoro davlat universiteti talabasi*

Yangi O'zbekistonning tashqi siyosati barqaror, adolatli va demokratik davlat qurishga, mamlakatimizning tashqi dunyoga ochiqlik tamoyilini ilgari surishga hamda mintaqaviy va ko'p

¹ Тагиев М. Раватходжинская плотина и ее значение для орошения Самарканского оазиса // Общественные науки в Узбекистане. – № 9. – 1970. – С. 96.

² Маев Н. Топографический очерк Туркестанского края: орография и гидрография края // Материалы для статистики Туркестанского края. Ежегодник. Под редакцию Н.А. Маева. Вып. I. – СПб., 1872. – С. 107.

³ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/geografiya/zarafshon-daryosi-tarix-va-bugun/> (мурожаат қилинган сана: 15.05.2024.).

Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция

томонлама о'заро hamkorlikni rivojlantirishga qaratilmoqda. Biz shu yo'lida erishgan natijalarimizни yanada mustahkamlab, uni albatta qat'iy davom ettiramiz.¹

Markaziy Osiyo mamlakatlari rahbarlarining birlashgan holdagi umumiy harakatlari natijasida mamlakatimizda qisqa muddat ichida o'zaro ishonch va yaxshi qo'shnichilikka asoslangan yangi siyosiy muhit shakllanib bormoqda. Mintaqalar o'rtasidagi barcha turdag'i muloqot shakllari faollashdi, amaliy va manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yish borasida muhim tarixiy qadamlar qo'yildi. Markaziy Osipyodagi barcha mamlakatlarning hamkorlikka samimiyl intilishi va umumiy kelajak uchun mas'uliyatni his etishi mintaqamizning barqaror taraqqiyoti va farovonligining mustahkam kafolatidir.²

So'nggi yillarda olib borilayotgan faol tashqi siyosat strategiyasini amalga oshirayotgan Yangi O'zbekiston davlatimiz rahbariyati xalqaro tashkilotlar bilan amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirishga alohida ahamiyat berib bormoqda. Shu jihatdan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning ixtisoslashgan maxsus tuzilmalari bilan keng qamrovli hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish v ayanada mustahkamlash ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib kelmoqda. Yangi O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotida Markaziy Osiyo davlatlari manfaatlarini ilgari surayotgan faol ishtirokchiga aylanib bormoqda. Bu manfaatlarga yoshlar huquqlarini himoya qilish, suv resurslarini tejash, ekologiya, xavfsizlik, barqaror rivojlanish, mintaqada tinchlik va ishonch o'rnatish, bag'rikenglikni targ'ib qilish masalalari misol bo'ladi.

Markaziy Osiyo davlatlari hamda O'zbekiston o'rtasida belgilangan vazifalarni samarali tarzda amalga oshirish uchun o'zaro hamkorlikni doimiy monitoring qilish va muvofiqlashtirish mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Ayni paytda Markaziy Osiyo davlatlari noqulay iqlim sharoitlari natijasida va oqibatida suv tanqisligiga, yerlarning cho'llanish muammosining keskinlashuviga, mintaqqa uchun o'ta muhim muammoga duch kelmoqda. Bu hodisalar esa barqaror rivojlanishga xavf yaratayotgan tabiiy ofatlar sonining ko'payishiga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasi uchun kuchayib borayotgan tahdidlar va yuzaga kelayotgan yangi tahiddlarni hisobga olgan holda, Prezident Sh.Mirziyoyev boshchiligidagi Markaziy Osiyoning mintaqaviy xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta'minlashda BMT bilan o'zaro hamkorlikni davom ettiradi. Bunga mintaqaviy jarayonlar va hamkorlikning jadal sur'atlari hamda Markaziy Osiyo muammolarini hal qilishda mamlakatlarning sa'y-harakatlarini birlashtirish ham yordam beradi.³

Yangi O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy tizimida Markaziy Osiyo davlatlari manfaatlarini ilgari surish bo'yicha xalqaro jamiyat bilan amaliy hamkorlik qilish uchun keng imkoniyatlar va istiqbollarni ochayotganini ta'kidlash lozim. O'zbekiston va Markaziy Osiyoning global miqyosdagi aloqalarni rivojlantirishga ochiqligi muammolarni imkoniyatlarga aylantiradi va bu hodisa o'z navbatida o'zgaruvchan sharoitlarda mintaqaviy hamkorlikning yangi modelini shakllantirishga xizmat qiladi.⁴

O'zbekistonning Markaziy Osiyo bo'yicha mintaqaviy hamkorlik strategiyasini ishlab chiqish va unda quyidagi masalalarga alohida urg'u berish talab etiladi:

O'zaro savdo aylanmasi hajmini kamida 2 barobar oshirish;

Sanoatda qo'shimcha qiymat yaratish bo'yicha yaxlit zanjirlarni va kooperatsiyani mustahkamlash;

Transport sohasida tashqi savdo uchun "yashil koridorlar" hamda transit imkoniyatlarni kengaytirish;

Xalq diplomatiyasi tamoyilini, jumladan, ilm-fan, ta'lim, sog'liqni saqlasj, madaniyat, sport va turizm sohalaridagi aloqalarni kuchaytirish;

¹ Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi \ "O'zbekiston"- Toshkent 2023\ b-408.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev asarlarining 3-jildi. Toshkent-“O'zbekiston”-2019. b-348

³ Murod Uzoqov, Mintaqaviy tadqiqotlar markazi rahbari," O'zbekiston Respublikasi bilan Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyoti"

⁴ Murod Uzoqov, Mintaqaviy tadqiqotlar markazi rahbari," O'zbekiston Respublikasi bilan Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyoti"

Бухоро тарихи масалалари (энг қадимги замонлардан ҳозиргача)

Qo'shni Afg'oniston zaminida tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashda jafokash afg'on xalqiga qo'limizdan kelgan barcha yordamni ayamaslik;

"Termiz-Mozori Sharif-Kobul-Peshovar" temir yo'lini qurish hamda energetika, savdo va sohalaridagi strategik va muhim loyihalarni hamkorlikda amalga oshirish;

Afg'oniston va uning atrofidagi vaziyatning rivojlanishiga nisbatan SHHT va KXSHT ning umumiy strategik yondashuvini ishlab chiqish;

Inson, jumladan, xotin-qizlar va milliy ozchiliklarning asosiy huquq va erkinliklariga rioya qilinishini ta'minlash.¹

Xullas, yangi O'zbekistonning yuksalib borayotgan tashqi siyosatini faollashtirish yuzasidan boshlagan keng ko'lamli ishlarni, milliy manfaatlarimizga foydali bo'ladigan ochiq siyosatimizni izchil davom ettirmog'imiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi \ "O'zbekiston"- Toshkent 2023\ b-408
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev asarlarining 3-jildi. Toshkent- "O'zbekiston"-2019. b-348
3. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi \ "O'zbekiston"- Toshkent 2023\ b-406

¹ Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi \ "O'zbekiston"- Toshkent 2023\ b-406.

Бухоро тарихи масалалари (энг қадимги замонлардан ҳозиргача)

Nosirova S.S. Nasimov D.B. AJDODLAR MEROSI - MATO HUNARMANDCHILIK NA'MUNALARINING ASRAB AVAYLASHNING DOLZARBLIGI	504
Kazakova Marifat Dexkanovna. OLIY TA'LIM TIZIMI RIVOJIDA BUXOROLIK AYOL OLIMALARNING O'RNI (BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI MISOLIDA)	508
Qurbanova Dilnora Nuriddin qizi. TARIX FANINI O'QITISHDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARASI	510
Nosirova Yulduz O'ktam qizi. JADID MA'RIFATPARVARLARINING ILMIY-PEDAGOGIK QARASHLARI - ZAMONAVIY O'QUVCHILARNING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARINI TARBIYALASH VOSITASI.....	511
D.Elova, Abdullayeva N. ME'MORCHILIK SAN'ATIDAGI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLAR (IX-XII ASRLARDA).....	513
Nilufar Jumayeva Ahmadovna, Shahlo Ortikova Salim qizi. ABU NASR FAROBIYNING ILMIY MEROSI VA UNING JAHON TARIXIDA TUTGAN O'RNI.....	515
Shuxrat Yodgorovich Qudratov, Rashidov Xurshid. O'ZBEKISTON-TURKIYA: TARIXAN TARKIB TOPGAN ALOQALAR.....	517
Ahmadov Ahmadjon Asror o'g'li, Raxmonov Zafar Zoir o'g'li. QADIMGI BAQTRIYA DAVLATCHILIGI XUSUSIDA AYRIM MASALALAR.....	519
Sobirov Umid Baxtiyorovich. O'ZBEKISTONDA BUXORO TARIXINI O'RGANISHNING DOLZARB MASALALARI	521
.....منشىك اظم دهى سع انى سامان ىف رهنگ تختىپا عنوان بـ ۴ بـ خاران قش بـ رس	523
Меликов Н.А. САМАРҚАНД ВОҲАСИНИНГ АСОСИЙ СУВ ТАРМОҚЛАРИ ВА СУФОРИШ ИНШОАТЛАРИ.....	531
Shuxrat Yodgorovich Qudratovб Rajabov Azimjon Abdullo o'g'li. O'ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI BILAN ALOQALARIDA ILIQLIK MUNOSABATLARINING SHAKLLANISHI.....	533